



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 05 | pp. 72-77 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA O'Z KAPITALI HISOBINI YURITISHNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI



Axmedov Latayibxon Mamitxonovich,

“UMFT” universiteti

“Raqamli iqtisodiyot va moliyaviy texnologiyalar”

kafedrası dotsenti v.b.

Annotatsiya: Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida o'z kapitali hisobini takomillashtirishning nazariy-metodologik jihatlari, rivojlangan davlatlar tajribasi va xalqaro standartlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda o'z kapitalini shakllantirish, hisobini yuritish va dividendlarni taqsimlash mexanizmlarini xalqaro amaliyotga muvofiqlashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruv sifatini oshirish va moliyaviy shaffofligini ta'minlash bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyatlari, o'z kapitali, kapital hisobi, dividend siyosati, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS), korporativ boshqaruv.

Аннотация: В статье рассмотрены теоретико-методологические аспекты совершенствования учета собственного капитала в акционерных обществах на основе международных стандартов и опыта развитых стран. Проведен сравнительный анализ зарубежных практик формирования, учета капитала и механизмов распределения дивидендов. Разработаны научно-практические рекомендации по гармонизации национальной системы учета с международными требованиями, направленные на повышение прозрачности финансовой отчетности и качества корпоративного управления в акционерных обществах Узбекистана.

Ключевые слова: акционерные общества, собственный капитал, учет капитала, дивидендная политика, международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), корпоративное управление.

Abstract: This article explores the theoretical and methodological foundations for improving equity accounting in joint-stock companies, based on international standards and developed countries' experiences. A comparative analysis of foreign practices related to equity formation, accounting procedures, and dividend distribution mechanisms is provided. Scientific and practical recommendations are proposed for aligning national accounting systems with international standards, aiming to enhance financial reporting transparency and corporate governance quality in Uzbekistan's joint-stock companies.

Keywords: joint-stock companies, equity capital, capital accounting, dividend policy, International Financial Reporting Standards (IFRS), corporate governance.

Kirish

Hozirgi zamon sharoitida aksiyadorlik jamiyatlari O'zbekiston milliy iqtisodiyotida yetakchi tashkilot shakllaridan biri sifatida namoyon bo'lib, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va iqtisodiyotning global integratsiyasini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. O'z navbatida, aksiyadorlik jamiyatlarining barqaror rivojlanishi ularning moliyaviy resurslari va, ayniqsa, o'z kapitalini samarali boshqarish bilan bevosita bog'liqdir. O'z kapitali moliyaviy mustaqillikni ta'minlash, qarz yuklamalarini minimallashtirish hamda aksiyador va investorlarning manfaatlarini himoya qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan asosiy iqtisodiy kategoriya hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida korporativ boshqaruv tizimining shaffofligi va samaradorligiga qo'yilayotgan talablarning kuchayishi, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (XMHX yoki IFRS) o'tish va korporativ hisob tizimini xalqaro darajaga moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlar, aksiyadorlik jamiyatlarida o'z kapitali hisobining aniq, ishonchli va batafsil yuritilishini talab etmoqda. Bu, o'z navbatida, korporativ moliyaviy hisobotlarni foydalanuvchilarga aniq axborot yetkazish orqali investorlar ishonchini mustahkamlash, korxonaning raqobatbardoshligini oshirish va bozor qiymatini oshirish imkonini yaratadi. Shu boisdan, bugungi kunda o'z kapitali hisobining nazariy-metodologik asoslarini chuqur tahlil qilish hamda uni yanada takomillashtirish vazifasi iqtisodiy tadqiqotlar sohasida dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Jahon moliya amaliyotida korporativ boshqaruv sifati va o'z kapitalini hisobga olish masalasi turli iqtisodiy krizislar oqibatida yanada dolzarb tus olgan bo'lib, rivojlangan mamlakatlarda korporativ moliyaviy hisobotlarni yuritish tizimiga nisbatan talablar kuchaygan. Ayniqsa, o'z kapitalining tarkibini aniq aks ettirish, uning hosil bo'lish manbalarini shaffof tarzda ko'rsatish, dividend siyosatini amalga oshirish mexanizmlarini yaxshilash hamda aksiyadorlarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish kabi muhim jihatlarda bo'yicha xalqaro amaliyot va ilmiy tadqiqotlar chuqurlashib bormoqda. Bunda, asosan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) tamoyillari va ilg'or xorijiy mamlakatlarning tajribalaridan foydalanish amaliyoti keng tarqalmoqda.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarida o'z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS – International Financial Reporting Standards) asosida takomillashtirishga doir ilmiy yondashuvlar, amaliy tajriba va huquqiy asoslar chuqur o'rganildi. Tadqiqotning metodologik bazasini quyidagi nazariy va amaliy yondashuvlar tashkil etdi:

Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida o'z kapitali tarkibi, shakllanish manbalari, hisob yuritish prinsiplari va xalqaro standartlar bilan solishtirish asosida tahlil qilindi. Bunda o'z kapitalining asosiy komponentlari (ustav kapitali, qo'shimcha kapital, taqsimlanmagan foyda, revalvatsiya zahiralar va boshqalar) alohida modullar sifatida ko'rib chiqildi.

Tadqiqot quyidagi asosiy metodlar orqali amalga oshirildi:

Normativ-huquqiy tahlil – O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, Iqtisodiyot va Moliya vazirligining buxgalteriya reglamentlari,

shuningdek, xalqaro IFRS 1, IFRS 10, IAS 1, IAS 32, IAS 33 kabi standartlar asosida huquqiy tahlil o'tkazildi.

Empirik tahlil – O'zbekiston fond bozori ishtirokchilari – yirik aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlari (2021–2024 yillar davomidagi) asosida real holat o'rganildi.

Ekspert baholash usuli – buxgalteriya va audit sohasidagi tajribali mutaxassislar fikrlari asosida o'z kapitali hisobining zamonaviy muammolari aniqlanib, yechim takliflari shakllantirildi.

Statistik va grafik tahlil – statistik ko'rsatkichlar asosida kapitalning dinamikasi, tarkibiy o'zgarishlari va moliyaviy barqarorlikka ta'siri vizual ko'rinishda taqdim etildi.

Tadqiqotning ob'ekti – O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yurituvchi aksiyadorlik jamiyatlarining buxgalteriya hisob tizimi. Tadqiqotning predmeti – o'z kapitalining hisobini yuritish amaliyoti, unga xalqaro standartlarni integratsiya qilish jarayoni va uni takomillashtirish yo'nalishlari.

Adabiyotlar sharhi

Aksiyadorlik jamiyatlarida o'z kapitali hisobini yuritish va uni takomillashtirish muammolari iqtisodiy nazariya va moliyaviy boshqaruvning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida turli ilmiy yondashuvlar orqali o'rganilgan. Mazkur sohada olib borilgan tadqiqotlar korporativ boshqaruv nazariyasi, agentlik nazariyasi, stejkxolderlar nazariyasi hamda institutsional nazariya kabi ilmiy qarashlarga asoslangan holda rivojlanib kelmoqda. Korporativ boshqaruv nazariyasi aksiyadorlik jamiyatlarida samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish va kompaniya qiymatini oshirish yo'llarini o'rganadi. Ushbu nazariy yondashuvda kompaniya boshqaruvida o'z kapitalining roli va tarkibi muhim o'rin egallaydi. Jensen va Mekling [1] tomonidan ishlab chiqilgan agentlik nazariyasiga ko'ra, korporativ tuzilmalarda menejerlar (agentlar) va aksiyadorlar (asosiy egalari) o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi va axborot assimetriyasi mavjud bo'ladi. Bu muammolarni hal qilishda, kompaniyaning o'z kapitalini shaffof tarzda hisobga olish va korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Agentlik nazariyasi doirasida o'z kapitalini shakllantirish va hisobini yuritish aksiyadorlar va menejment o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvini kamaytirishga xizmat qiladi. Shuning uchun, o'z kapitalini hisobga olish jarayonining shaffofligini oshirish, dividend to'lovlari aniq tartibga solish, hisob va hisobot tizimini xalqaro standartlar asosida olib borish muhim hisoblanadi [2]. Shuningdek, dividend siyosati kompaniya o'z kapitalini boshqarishning samarali mexanizmi sifatida agentlik xarajatlarini kamaytirish va investorlar manfaatini himoya qilishda muhim omil hisoblanadi [3].

Institutsional nazariya aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini yuritishda institutsional omillarning (qonunchilik, davlat tartibga solishi, xalqaro standartlar) rolini ta'kidlaydi. DiMaggio va Povel [4] tomonidan ilgari surilgan institutsional izomorfizm kontseptsiyasiga ko'ra, korporativ boshqaruv tizimi va buxgalteriya hisobi xalqaro standartlar va eng yaxshi amaliyotlar ta'sirida shakllanadi. Shu asosda, korporativ hisob tizimlarini xalqaro standartlar asosida yuritish institutsional rivojlanish va moliyaviy barqarorlik uchun muhim omil hisoblanadi.

O'z kapitalining tarkibi va uni hisobga olish masalalari yuzasidan xalqaro miqyosda olib borilgan empirik tadqiqotlar ham mavjud. Brigham va Ehrhardt [5] kompaniyaning o'z kapitali tarkibini boshqarishda korxona qiymatini oshirish, investorlar ishonchini mustahkamlash hamda moliyaviy risklarni kamaytirish muhimligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisob yuritish kompaniyalarning kapital tuzilmasini aniq va shaffof tarzda aks ettirish, shuningdek, kompaniya moliyaviy axborotining ishonchliligini oshirish imkonini berishini asoslaydi [6].

Tahlil va natijalar

Aksiyadorlik jamiyatlarida o'z kapitali hisobini samarali tashkil etish va xalqaro standartlar asosida yuritish korporativ boshqaruv sifatini oshirish, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va investorlar manfaatlarini himoya qilishning muhim omili hisoblanadi. Shu boisdan, mazkur bo'limda rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalarini batafsil tahlil qilish orqali o'z kapitalini shakllantirish, hisobga olish hamda dividend siyosatini yuritish bo'yicha mavjud samarali yondashuvlar aniqlanadi va mamlakatimiz amaliyotiga mos keladigan jihatlari asoslab beriladi.

1-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda aksiyadorlik jamiyatlarining o'z kapitali tarkibini shakllantirish tajribasi

Mamlakatlar	O'z kapitali tarkibining asosiy xususiyatlari	Qo'llaniladigan xalqaro standartlar va tartibga solish asoslari
AQSH	O'z kapitalining asosiy qismini aksiyalar va emissiya qo'shimcha kapital tashkil qiladi. Aksiyalarning qayta sotib olinishi (buy-back) keng qo'llaniladi, bu esa kompaniya qiymatini boshqarish va dividend siyosatini amalga oshirishga yordam beradi.	AQSH Umumiy qabul qilingan hisob standartlari (US GAAP), SEC (Qimmatli qog'ozlar va birja komissiyasi) tomonidan tartibga solinadi.
Germaniya	Aksiyadorlik kapitali ikki xil shaklda (oddiy va imtiyozli aksiyalar) chiqariladi, aksiyadorlarning huquqlari aniq belgilangan. Kompaniyalar foydaning bir qismini majburiy zahiralarini shakllantirishga yo'naltirishi talab etiladi.	Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS), Germaniya Tijorat kodeksi (HGB) talablariga muvofiq yuritiladi.
Yaponiya	O'z kapitali tarkibida zaxira kapitali va foydadan shakllangan zahiralariga katta ahamiyat beriladi. Dividendlar odatda barqaror va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga asoslanib to'lanadi.	IFRS, Yaponiya Moliyaviy Hisobot Standartlari (JGAAP) va Tokio birjasi qoidalari asosida tartibga solinadi.

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Rivojlangan davlatlar tajribasidan ko'rinadiki, o'z kapitalining shakllanishi va hisobini yuritish xalqaro standartlar va milliy qonunchilik talablariga qat'iy rioya qilish asosida amalga oshiriladi. AQSHda aksiyalarni qayta sotib olish keng tarqalgan bo'lib, bu

kompaniya qiymatini oshirish va investorlar manfaatini himoya qilish imkonini beradi. Germaniyada majburiy zahira fondlarining mavjudligi aksiyadorlarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlaydi. Yaponiyaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga asoslangan dividend siyosati esa moliyaviy barqarorlikka xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida xalqaro standartlarni qo'llash orqali o'z kapitalini shakllantirish jarayonini takomillashtirish zaruriyati mavjud.

2-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlarida dividendlarni hisoblash va to'lash mexanizmlari

Mamlakatlar	Dividend siyosatining xususiyatlari	Dividendlarni hisoblash va to'lash mexanizmi
Shvetsiya	Dividendlar aksiyadorlarning uzoq muddatli manfaatlarini hisobga olgan holda belgilab beriladi, dividend siyosati barqarorlik va prognozlilikka asoslanadi.	Dividendlarni to'lashda oldindan belgilangan mexanizmlardan foydalaniladi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishida tasdiqlanadi.
Fransiya	Dividendlarning minimal miqdori qonun hujjatlari bilan belgilanib, kompaniya tomonidan olinadigan foydaning belgilangan qismi aksiyadorlarga to'lanishi talab qilinadi.	Dividendlarni hisoblash kompaniya boshqaruv kengashi qarori bilan amalga oshiriladi va hisobotda batafsil aks ettiriladi.
Janubiy Koreya	Dividend siyosati aksiyadorlarning manfaatlarini va kompaniya rivojlanish rejasiga muvofiq belgilanadi. Dividendlarni to'lash mexanizmlari shaffof va oldindan belgilangan.	Dividendlarni hisoblash va to'lash kompaniya boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi va barcha aksiyadorlarga oldindan e'lon qilinadi.

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Ushbu jadvaldagi xorijiy tajribalar dividendlarni hisoblash va to'lash mexanizmlarining shaffofligi va oldindan aniqlangan tartiblarga asoslanishi aksiyadorlar manfaatlarini samarali himoya qilishda muhim rol o'ynashini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, dividend siyosatining uzoq muddatli manfaatlariga yo'naltirilganligi aksiyadorlar ishonchini oshirish va kompaniya moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu boisdan, O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini yanada shaffof va xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar

O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida o'z kapitali hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish va uni samarali boshqarish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarining o'z kapitali hisobini Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) to'liq moslashtirish zarur. Bunda o'z kapitalining barcha tarkibiy elementlari ustav kapitali, emissiya daromadi, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foyda aniq, batafsil va tizimli aks ettirilishi lozim;

ikkinchidan, korporativ moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ochiqqligini ta'minlash uchun kapital tarkibidagi har qanday o'zgarishlar, aksiyalarning qayta sotib

olinishi va dividend siyosatiga oid qarorlar bo'yicha batafsil sharhlarni moliyaviy hisobotlarda majburiy ravishda aks ettirish talab etiladi;

uchinchidan, dividendlarni hisoblash va taqsimlash jarayonlarini oldindan belgilangan aniq mexanizmlar asosida amalga oshirish hamda kompaniya boshqaruv organlarining dividend siyosatini uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga muvofiq ishlab chiqishini qat'iy tartibga solish zarur;

to'rtinchidan, o'z kapitali hisobining samaradorligini oshirish uchun aksiyadorlik jamiyatlari buxgalteriya va audit xodimlarini xalqaro sertifikatlashtirish dasturlari asosida qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish choralari muntazam ravishda amalga oshirishi zarur.

Tadqiqot davomida aksiyadorlik jamiyatlarida o'z kapitali hisobini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari va xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi. Xalqaro standartlar asosida kapital hisobini yuritish kompaniyalarning moliyaviy shaffofligini oshirishi, investorlar ishonchini mustahkamlashi va korporativ boshqaruv samaradorligini ta'minlashi aniqlandi. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlarida kapital hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish, moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish va dividend siyosatini takomillashtirish orqali korporativ sektorning barqaror rivojlanishini ta'minlash muhimligi asoslandi. Mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi O'zbekiston iqtisodiyotining xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvini tezlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jensen M. C., Meckling W. H. Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure // Journal of Financial Economics. – 1976. – Vol. 3, №4. – P. 305–360.
2. Eisenhardt K. M. Agency theory: An assessment and review // Academy of Management Review. – 1989. – Vol. 14, №1. – P. 57–74.
3. La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A., Vishny R. W. Agency problems and dividend policies around the world // The Journal of Finance. – 2000. – Vol. 55, №1. – P. 1–33.
4. DiMaggio P. J., Powell W. W. The iron cage revisited: Institutional isomorphism and collective rationality in organizational fields // American Sociological Review. – 1983. – Vol. 48, №2. – P. 147–160.
5. Brigham E. F., Ehrhardt M. C. Financial Management: Theory and Practice. – 15th ed. – Cengage Learning, 2016. – P. 1–1200.
6. Ball R. International Financial Reporting Standards (IFRS): Pros and cons for investors // Accounting and Business Research. – 2006. – Vol. 36, sup.1. – P. 5–27.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

